

PAHLAVON MAHMUD RUBOIYLARIDA NAFIS  
SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

Termiz davlat universiteti

1-kurs talabasi Abdurahmonova Sarvinoz

hamda 2-kurs talabasi Abdurahmonova Farangiz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Pahlavon Mahmud ruboiylari 2 jihatdan badiiy tahvilga tortilgan: 1) she'riy san'atlar asosida 2) asarning badiiy talqini, mazmuni asosida. Shuningdek, ruboilarning shakl-u shamoyili, g'oyasi, davr mavzusi, dolzarb muammolarning talqini maqolaning asosiy qismini tashkil etgan.

**Kalit so'zlar:** radif, ruboiy, qofiya, nido, tajohil ul-orif, mazmun.

**Annotation:** This article provides an artistic analysis of Pahlavon Mahmud's rubaiyat from two perspectives: 1. based on poetic devices, 2. based on artistic interpretation and content. The main part of the article focuses on the form and structure of the rubaiyat, their ideas, thematic relevance to the era, and the interpretation of urgent issues.

**Keywords:** radif, rubai, rhyme, exclamation, tajahul al-'arif (feigned ignorance), content.

**Аннотация:** В данной статье художественный анализ рубаев Пахлавона Махмуда проведён в двух аспектах: 1. на основе поэтических средств,

2. с точки зрения художественной интерпретации и содержания. Основную часть статьи составляют вопросы формы и структуры рубаев, их идейной направленности, актуальности тем эпохи и осмысления насущных проблем.

**Ключевые слова:** радииф, рубай, рифма, восклицание, таджсахуль аль-ариф (притворное неведение), содержание.

Adabiyot xazinasini nafis lal-u javohirlar bilan to'ldirhan yetuk ijodkor, olim, orif, mutafakkir Pahlavon Mahmud ijodida ruboilarning salmog'i katta. U



so'fiy shoir sifatida ruboiylari orqali ma'naviy hikmatlar va hayotiy haqiqatlarni ifoda etgan, uning ijodi inson ma'naviy kamolotini targ'ib qilib, adolat poklik, yaxshilik va komillikka eltuvchi ruboiylardan iborat. Shuning uchun ham iste'dodli adabiyotshunos To'lqin Eshbek uning ijodiga, ruboiyotiga shunday baho beradi:

"Pahlavon Mahmudning ruboiylari Naqshbandiy tasavvuf maktabiga yaqin. Uning she'rlerida dunyo g'amidan voz kechish, ruhiy poklik va Allohga muhabbat g'oyalari ilgari suriladi. Bu jihatlari bilan u Yassaviy, Navoiy kabi mutasavvif shoirlar an'analarini davom ettirgan." <sup>1</sup>U faqat mazmunga emas, shaklga ham juda e'tiborli bo'lgan.

Sen zohid bu dunyoda ne yo'q debsan,  
Quvonmoq, kayf-u safo bir bog' debsan  
Agar fahm qilsang, dono go'zal fikr  
Bu dunyo ne istasang, bari bor debsan.

Ushbu ruboyning qofiyalanish tizimi a-a-b-a, radifi *debsan* so'zi, qofiyasi yo'q -bor-bog' so'zlariidir. Raviysi "o" unlisi. Ushbu baytda nido, tanosib badiiy san'atlari mavjud: zohid so'zi nido , kayf-u safo va quvonmoq so'zlar esa tanosibni yuzaga chiqargan. Insonning baxti o'zining yondashuvi va dunyoqarashiga bog'lik ekanligi haqida ushbu ruboiyda fikr bildirilgan.

Dunyoga kelib rangin bahor bo'ldingmi?  
Senga kim mehmon bo'ldi, o'ylab ko'rgin  
Ketganda ularni xursand qildingmi?  
Qish kabi bog'larni vayron qildingmi?

Ushbu ruboiy ham a-a-b-a tarzida qofiyalanib nafis she'riy san'atlardan tajohil ul-orif ya'ni bilib bilmaslikka olish san'atidan foydalanilgan. shuningdek, qish va bahor so'zleri esa tazodni yuzaga chiqargan. Bu ruboyning mazmunida insonning dunyodagi o'rni va uning qilgan ishlari muhokama qilinadi, shoir dunyo hayotini bahor va qish fasllari bilan solishtiradi, bahor yaratuvchanlik, quvonch va go'zallik ramzi, qish esa vayronagarchilik ramzidir.

<sup>1</sup> O'zbek adabiyoti tarixi. N.Jumaxon'ja. I.Adizova. Akademnashr. Toshkent-2015. 128-b



Ey yorug' dunyo, aytar gaping ne?

Necha go'zal bo'yin berganing ne?

Har bir borging kuygan qalb qonlari

Bu qadar zulmlar qilganing ne?

Go'zal badiiy san'atlardan *ey yorug' dunyo* so'zi nido, *ne* so'roq olmoshi esa tajohil ul-orif shakllantirgan. Mazmunida dunyoadolatsizligini tanqid qilgan, u yorug' dunyoning zulmli tomonlarini savolga tutadi, barglari qonga tashbeh etilib, dunyoning o'tkinchiligi va nohaqliklarni ochiq bayon etgan.

Qanchadan qancha o'tdi bu dunyo foniylar

Ko'plari bilmay o'tdi turmush ma'niylar

Bir nafas umr o'tgach yig'lagan ne?

Tiriklikda qilingan har ish qoniylar

Ushbu ruboiyning raviysi y undoshi bo'lib qofiyaning turiga ko'ra muqayyad qofiya hisoblanadi ko'p va bir nafas so'zlari orqali tazodni yuzaga chiqargan bo'lsa xuddi yuqoridagi ruboiy yanglig' ne so'roq so'zi orqali tajohil ul-orif ifoda etilgan. Shoir bu ruboiyda dunyo umrining qisqaligi haqida fikr yuritadi, insonlarning ko'pchiligi hayotning asl ma'nosini anglamay o'tib ketishlarini tilga olar ekan, u insonga har ishning asl qiymatini bilish va javobgarlik hissini anglashni tavsiya etadi.

Bu dunyo moli qolmas o'tib ketar

Ko'p do'stlik o'zgarur yomonlik etar

Bir yaxshi amal qoniqar hammaga

Shu ishlaring oxirida so'rab o'tar.

Mazkur ruboiyning shakl-u shamoyiliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yomonlik, yaxshi istilohlari antonim so'zlarni qo'llash, ya'nikim tazodni yuzaga chiqargan bo'lsa, mazmunida insonni amaliy poklikka chaqiruvchi hikmatga to'la. Mol -dunyo o'tkinchiligi va haqiqiy boylik yaxshi amallarda ekanligi uqtirilgan. Shoir yomonlikdan voz kechishni va insonlar bilan haqqoniy munosabatda bo'lishni maslahat beradi.

Dunyoga kelib jamolni ko'rningmi?

Kim uchun bir tuproq bo'lning ko'rningmi?



Shuncha yil yashab xayolga tushgan

Borib o'sha falsafani ko'rdingmi?

Albatta, barcha ruboilyari singari bu ruboiyda ham tajohil ul-orif san'atini qo'llaydi. Shoir mazkur ruboiyda inson hayotining ma'nosini anglash va uning asliga nazar solishga chaqirmoqda.

Qilma g'urur yo'lida barcha barobar

Do'sting bormi yolg'izlikdan chiq xabar

Shunday kun kelar yolg'iz qolasan

Qolmaydi hech kim jim ham bo'lar hazar.

Ruboioyning qofiyasi barobar - xabar - hazar bo'lib raviysi r undoshidir, muqayyad qofiya hisoblanib, badiiy san'atlardan yolg'iz, yolg'izlikdan ishtiqoq, asosdosh so'zlarni qo'llash san'ati mavjud. ushbu ruboiy insonlar o'rtasidagi tenglikni uqtiradi , shoir g'urur va manmanlikni qoralaydi, insonlarni bir-birini qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Har kuni shukr bir ish qil yoshing o'tmas

Ehson qilg'il aslo qoldirma o'tmas

Yomonlik qilgan do'stlar izi o'tmas

Inson o'lar bir necha yomon o'tmas.

Yomon, yomonlik negizlari ishtqoqni paydo qilib, ruboioyning shakl va mazmun nafisligiga ijobiy ta'sir qilgan, bu ruboiy yaxshilik qilish va insonlar orasida ezgulik izini qoldirishga chaqiruvchi o'gitdir. Shoir yomonlik va g'arazgo'ylikning kelajakda ham salbiy ta'siri qolishini ta'kidlaydi, yomonlik qilmaslik, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish hayotning asosiy qoidasi ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Pahlavon Mahmud ruboilyari o'quvchilarga ma'naviy kuch bag'ishlaydi, uning ruboilyari orqali insonlar hayotni chuqur anglash, o'z xatolarini tan olish va ezgulik yo'lida faol bo'lishga chorlanadi. Bundan tashqari Pahlavon Mahmud nafaqat ruboylarning nafisligiga, ichki go'zalligiga, balki tashqi go'zalligi, ya'ni shakl-u shamoyiliga ham juda e'tibor bergen, shuning uchun bo'lsa kerak uning ruboilyari hali - hanuz o'quvchilar qalbidan jo bo'lmoqda. Mana necha



asrlardan buyon uning ruboiylari adabiyot ixlosmandlarning yuragini zabit etib kelmoqda va bundan keyin ham kelajak kitobxonlarini o‘ziga maftun etgay!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. G‘ulomov, Y. Pahlavon Mahmud maqbarasi. Fan nashriyoti. Toshkent, 1972.
2. Haqqulov, I. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. Toshkent, 2007.
3. Sharipova, L. Ruboiy vaznlari. “Tili va adabiyoti ta’limi” jurnalni, 3-soni. Toshkent, 2013.
4. Somiy, Sh. Qomus al-a‘lom. 5-jild. Istanbul: Miqot Matbaasi, 1899. (O‘zbek tarjimasi asosida foydalanilgan nashr: Toshkent, 2000-yillar atrofida, tarjimon: T. Jalolov.)
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1–2-jiddar. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1977.